

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XODJAYEV ANVAR RASULOVICH

**O‘ZBEKISTONGA XALQARO JOZIBADOR FRANSHIZALARNI JALB
QILISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH YO‘NALISHLARI**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy(PhD) on
economical sciences**

Xodjayev Anvar Rasulovich

О‘zbekistonga xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing
tadqiqotlaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari..... 3

Ходжаев Анвар Расулович

Направления эффективного использования маркетинговых исследований
в привлечении международных привлекательных франшиз в Узбекистан. 27

Khodjayev Anvar Rasulovich

Directions for effective use of marketing research in attracting international
attractive franchises to Uzbekistan..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XODJAYEV ANVAR RASULOVICH

**O‘ZBEKISTONGA XALQARO JOZIBADOR FRANSHIZALARNI JALB
QILISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH YO‘NALISHLARI**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro–2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt.3321 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Nurov Ziyodulla Saymurodovich
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Abdulloev Asliddin Junaydullaevich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Muxsinov Bekzod Toxirovich
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.72.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "6" yanvar soat 10:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865)221-29-14, (998 65) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A/181) raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "25" dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "25" dekabr kuni 24 -raqamli reyestr bayonnomasi).



O.X. Xamidov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

D.Sh. Yavmutov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi,
professor

B.N. Navruz-Zoda
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish asosida franshizalarni jalb qilish investitsion jozibadorligini yangi bosqichga o'tishni namoyon etib, pirovardida ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi marketing tadqiqotlarining individuallashuvi, tor sohalar bo'yicha ixtisoslashuvi hamda milliy iqtisodiyotda xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda iste'molchilar talabi asosida ortib borishi mazkur o'zgarishlar bilan bog'liq holda yuz bermoqda. Xalqaro franchayzing assotsiatsiyasi ma'lumotlari bo'yicha "2023-yil hisobida dunyoda 16,5 ming franchayzer va 1,2 milliondan ortiq franchayzi mavjud bo'lib, tarmoqlarning savdo hajmi qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil etib, sohada 12 million kishi ish bilan band bo'lishiga olib keldi"¹. Bundan ko'rinadiki, xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda xalqaro jozibador franshizalarni mamlakatga jalb qilishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari global darajadagi muammo sifatida alohida o'rganilmoqda. Jumladan, yangi bozorlarga kirish va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan samarali usullar, kuchli brend imiji va muvaffaqiyatli biznes modeliga ega bo'lgan franshiza tizimlarining rivojlanish bosqichlari, bozorlarga kirishda va yangi franshiza oluvchilarni jalb qilishda mamlakat jozibadorligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda marketing konsepsiyalarini qo'llash, hududlarda xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda.

Yangi O'zbekistonga xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va global integratsiyalashuvi sharoitida juda dolzarb va zarurdir. Bu borada "Hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish hamda asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash"² ustivor vazifa sifatida ko'zda tutilgan bo'lib, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish uchun marketing tadqiqotlarini kengaytirish dolzarb masala bo'lib, bu tadqiqotlar iqtisodiy salohiyat, infratuzilma, soliq imtiyozlari, mehnat bozori sharoitlari, mahalliy va xalqaro bozorlar bilan integratsiya, biznes yuritish qulayliklari kabi ko'plab omillarni o'z ichiga oladi va xorijiy investorlarning ehtiyojlari va talablarini aniqlash, ular uchun maxsus sharoitlar yaratish hamda mamlakatimizda investitsiya qilishning afzalliklarini keng ommaga yetkazishni nazarda tutadi, bu esa iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish va xalqaro maydonda mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

¹ Rossiya franchayzilar assotsiatsiyasi-<https://www.rusfranch.ru/franchising/statistics/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrgi PF-158- son "«O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son «O‘zbekiston Respublikasi investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019-yil 14-maydagi PF-5717-son “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 28-yanvardagi PF-5643-son «Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida»gi, 2022-yil 08-sentabrdagi PF-215-son «O‘zbekiston Respublikasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son «Ma‘muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2023-yil 11 sentabrgi PF-158- son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda, 2021-yil 25-avgustdagi PQ-5233-son «Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 28-dekabrdagi PQ-459-son «O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishda mazkur ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanishning nazariy-ilmiy, uslubiy va amaliy muammolari xorijlik olimlardan G.Albaum, E.Duerr, J.Strandskov, S.Hollensen, P.Kotler, H.Michael, J.Erwin, E.Michael, S.Michael, M.Joyce, R.Perrigot, Y.K.Lee, S.H.Kim, M.K.Seo, E.Calderon-Monge, J.Sheth, R.Sisodia, D.Vrontis, A.Thrassou, Y.Wind, V.Mahajan, J. Mathews, D. De-Bolt singari olimlarning ilmiy ishlarida atroflicha yoritilgan³. Ushbu olimlarning tadqiqot ishlarida franshizalarni jalb

³ Albaum, G., Duerr, E., & Strandskov, J. (2018). International Marketing and Export Management. Routledge.; Hollensen, S. (2019). Global Marketing: A Decision-Oriented Approach. Pearson Education Limited.; Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management. Pearson Education Limited.; "Franchising For Dummies" - by Michael H. Seid and Joyce Mazero Bu "Dummies"; "Franchise Bible: How to Buy a Franchise or Franchise Your Own Business" - by Erwin J. Keup; "The E-Myth Revisited: Why Most Small Businesses Don't Work and What to Do About It" - by Michael E. Gerber; "The Complete Idiot's Guide to Franchising" - by Michael Seid and Joyce Mazero; Multi-channel communication: the case of Subway attracting new franchisees in France. R Perrigot (2011); Market orientation and business performance: Evidence from franchising industry YK Lee, SH Kim, MK Seo, SK High - International journal of hospitality , 2015; How to select franchisees: A model proposal E Calderon-Monge, I Pastor-Sanz of Business Research, 2021 – Elsevier; Sheth, J. N., & Sisodia, R. S. (2005). Does Marketing Need Reform? Fresh Perspectives on the Future. M.E. Sharpe.; Vrontis, D., & Thrassou, A. (2009). International Marketing Research: Challenges and Opportunities. Emerald Group Publishing.; Wind, Y., & Mahajan, V. (2012). Digital Marketing: Global Strategies from the World's Leading Experts. Wiley.; "Street Smart Franchising" - by Joe Mathews and Don DeBolt; В.Исаенко, О.Н.Дегтяр, Привлечение покупателей в розничные торговые сети на основе маркетинговых технологий. - Вестник Белгородского университета, (2016); Т.В.Макарова, К вопросу о повышении

qilishning nazariy jihatlarini, rivojlanish tarixi, evolyusiyasi, bosqichlari, tamoyillari hamda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish mexanizmlari u yoki bu darajada nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida bu borada Y.Isayenko, O.Degtyar, N. Ponomaryova, A.Ponomarev, T.Bezrukova, T.Selix, T.Karpova, Z.Olenikova, T.Makarova, A.Pankruxin singari olimlar⁴ tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu ilmiy ishlarda franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Franshizlarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar A.Shayxov, Sh.Ergashxodjayeva, R.Rasulbekova, X.Umarova, D.Ubaydullaeva, S.G'aybullayev va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁵.

Biroq, amalga oshirilgan tadqiqot ishlari iqtisodiy globallashtirish jarayonlarida mamlakatning iqtisodiy o'sishi va barqarorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblangan xalqaro jozibador franshizlarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish, mamlakatning investitsion faoliyatini yaxshilashda marketing tadqiqotlarining o'rni, franshizalarni jalb qilishning eng samarali yo'llar, potensial franshiza ishlab chiqaruvchilarning O'zbekiston bozoridagi ehtiyojlarini aniqlash va franshiza brendini muvaffaqiyatli joriy qilish uchun franchayzerlarni tahlil qilish, ulardan samarali foydalanish bilan bog'liq muammolar yetarlicha tadqiq etilmaganligi ushbu tadqiqot ishining dolzarbligidan dalolat berib, ushbu mavzuni tanlashga asos bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Buxoro davlat universitetining "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyotlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

эффeктивности развития сетей розничной торговли в условиях франчайзинга. - Современные наукоемкие технологии, (2011)

⁴ Исаенко В., Дегтяр О.Н., Привлечение покупателей в розничные торговые сети на основе маркетинговых технологий, - Вестник Белгородского университета, 2016.; Пономарёва Н.Н., Пономарев А.Н., Безрукова Т.Л. Теоретические аспекты инвестиционного маркетинга // Лесотехнический журнал. 2013. № 2. С. 189–193.; Сельх Т.Н. Формирование маркетингового потенциала территории. 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством: маркетинг. Дис. соис. уч. ст. к.э.н. Москва – 2018.; Карпова Т. Ю. Основные принципы маркетингового подхода в муниципальном управлении – Электрон. текстовые дан. – Загл. с экрана. – Описание основано на версии, датир.: июн 28, 2016.; Оленикова З.Ю. Инвестиционный маркетинг как инструмент развития российских промышленных предприятий // Известия Волгоградского государственного технического университета. 2007. Т. 12. № 7. С. 100–102.; Макарова Т.В., К вопросу о повышении эффективности развития сетей розничной торговли в условиях франчайзинга. - Современные наукоемкие технологии, (2011); Панкрухина А.П. Маркетинг территорий: маркетинг региона. //Маркетингв России и зарубежом, 2004. №2. С.9-11.

⁵ А.Э. Shayxov, O'zbekiston tadbirkorlari uchun franchayzing bo'yicha qo'llanma, Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2008 y.; Sh.Ergashxodjayeva, Marketing tadqiqotlari, darslik, Toshkent-2019,153-223 bet; R.Rasulbekova, Franshiza shartnomasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari, - International Conference on Legal Sciences, 2023 - science-zone.org; X.Q. Umarova Chet davlatlarda va O'zbekistonda kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi (franshizing) instituti: huquqiy mohiyati., 2023 - cyberleninka.ru; Ubaydullaeva, D. (2020). "Franchise" Branch Campuses in Uzbekistan: The Internationalisation of Higher Education as a Solution?. *Central Asian Affairs*, 7(2), 152-174.; S G'aybullayev, Franchayzingning bugungi iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati, - Talqin va tadqiqotlar, 2022 - talqinvatadqiqotlar.uz

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonga xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Franshiza tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va ularni jalb qilishning milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni, franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy tadqiq etish;

Franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanishning ilg‘or xorij tajribalarini o‘rganish asosida ushbu tajribalardan milliy iqtisodiyotda foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekiston biznes sohalarida xalqaro franshizalar faoliyatining joriy qilinganlig holatini tahlil qilish asosida yuzaga kelayotgan tendensiyalarni baholash;

Xalqaro franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini baholash;

Franchayzing sohasidagi o‘zgarishlar va yangi tendensiyalarning milliy iqtisodiyotga integratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish orqali franchayzalarni jalb qilishning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash;

Xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan foydalanish darajasi tahlil qilish;

Xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilish orqali mamlakat bozorining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash;

Marketing tadqiqotlari asosida mamlakatning investitsion salohiyatini baholash usullarini takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslash;

Tadqiqotning obyekti sifatida franshiza munosabatlarida qatnashadigan xalqaro franshizalar va O‘zbekistonga franshiza asosida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekistonga xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, statistik tahlil, anketa-so‘rovnoma, qiyosiy tahlil, SWOT-tahlil, STEP-tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish va ekonometrik prognoz usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

franchayzing shartnomalarining samaradorligini baholash uslubiyoti nomoddiy aktivlar va intellektual mulk qiymatini xarajat va daromadlarni kompleks tahlil qilish, risklarni hisobga olish va innovatsion yondashuvlar orqali yangi investitsiyalar uchun ishonchli baholashga asoslanuvchi “Grinfeld usuli”ga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

hududlarda franchayzing shartnomalar samaradorligini oshirishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini ko‘paytirish hamda xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga asoslanuvchi “GSP+” (Generalized System of Preferences) usuli preferensiyalaridan foydalanishda optimal yechim sifatida asoslangan;

marketing tadqiqotlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda O‘zbekistonga global brendlarni jalb qilishning bozordagi assimetrik axborotlarni

kamaytirish hamda transaksiya xarajatlarini qisqartirishda xalqaro Sorsing kompaniyalari xizmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi taklifi ilmiy asoslangan;

O'zbekistonda franchayzing asosida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning marketing tadqiqotlariga ustuvorlik berish asosida 2025-2028-yillar davomida yalpi ichki mahsulotga qo'shadigan summasining prognoz parametrlari trend tenglamasi yordamida ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston bozorida marketing tadqiqotlarini olib borish asosida franshiza kompaniyasi uchun potensial mijozlarni, bozor segmentlarini va savdo qilishning eng samarali yo'llari aniqlanib, investitsiya miqdori va investitsiya olish muddati kabi amaliy ma'lumotlar kompaniyalar uchun to'g'ri moliyaviy rejalashtirish va resurslarini aniqlash usullari ishlab chiqilgan;

xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilish uchun marketing tadqiqotlarida mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirishni ko'rsatadigan ma'lumotlarning taqdim etilishi va franshiza kompaniyasi tomonidan taqdim etilayotgan mahsulotlar va xizmatlarni O'zbekiston bozoriga moslashtirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

marketing kommunikatsiya vositalari (reklama, ijtimoiy media, veb-saytlar) bo'yicha kontent tahlil qilish asosida ulardan samarali foydalanish strategiyalari ishlab chiqilgan;

xalqaro franshiza olish jarayonlarini soddalashtirish asosida O'zbekistonda yangi ish o'rinlarini yaratish, yangi kasblarni oshirish imkoniyatlarini belgilash orqali yangi ish o'rinlarini yaratish va ishsizlik darajasini pasaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan muayyan me'yoriy hujjatlar, tegishli idora va tashkilotlarning hisobotlari, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi hisobotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining amaliyotlarida joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonga xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish yo'nalishlari orqali mamlakat bozorining xususiyatlari va xalqaro franshizalar uchun potensialni hamda kompaniyalarga xalqaro franshiza olishda muvaffaqiyatli bo'lish uchun amalga oshirish zarur bo'lgan institutsional islohotlarni realizatsiya qilishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar, ilmiy fikr-mulohazalar va nazariy g'oyalardan sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, ushbu soha xodimlarining malakasini oshirish hamda oliy o'quv yurtlarining "Marketing",

“Biznes va tadbirkorlik asoslari”, “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti”, “Ishbilarmonlik va boshqaruv”, “Investitsiya faoliyati” singari fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonga xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

franchayzing shartnomalarining samaradorligini baholash uslubiyoti nomoddiy aktivlar va intellektual mulk qiymatini xarajat va daromadlarni kompleks tahlil qilish, risklarni hisobga olish va innovatsion yondashuvlar orqali yangi investitsiyalar uchun ishonchli baholashga asoslanuvchi “Grinfeld usuli”ga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan taklifidan Adliya vazirligining 2023-yil 28-dekabrda 3487-sonli raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘ning 431-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 26-sentyabrdagi 03-21-1-9024-son ma‘lumotnomasi). Natijada, baholashning xalqaro standartlari tamoyillari asosida yagona yondashuvni va bozor konyunkturasi hisobga olishni ta‘minlaydigan Yagona milliy baholash standartlarini takomillashtirish bo‘yicha Grinfeld usulidan franchayzing nomoddiy aktiv va intellektual mulk obyektlari qiymatini baholash imkoniyati ortgan;

hududlarda franchayzing shartnomalar samaradorligini oshirishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini ko‘paytirish hamda xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga asoslanuvchi “GSP+” (Generalized System of Preferences) usuli preferensiyalaridan foydalanishda optimal yechim sifatida asoslangan taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrgi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 55-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 26-sentyabrdagi 03-21-1-9024-son ma‘lumotnomasi). Natijada, “GSP+” preferensiyalar tizimidan foydalanishni 2027-yilga qadar uzaytirilgani sohadagi tadbirkorlar Yevropaga chiqishda yanada keng imkoniyatlarni yaratib berdi. Bugungi kunda charm sanoatida 10 turdagi mahsulotlar “GSP+” tizimi bo‘yicha eksport qilinayotgan bo‘lsa 2024-yildan boshlab bu ro‘yxatni 30 turga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shu maqsadda, soha korxonalarida halqaro sifat menedjmenti (ISO) sertifikatlarini olish bo‘yicha tarmoq rejaları tuzilgan bo‘lib, unga muvofiq, 100 ga yaqin korxonalar tomonidan xalqaro sertifikat (ISO:9001) o‘zlashtirishga erishilgan bo‘lib, 2024-yilda mazkur turdagi sertifikatlarni 200 dan ziyod korxonalar uchun olish imkoniyati yaratilgan;

marketing tadqiqotlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda O‘zbekistonga global brendlarni jalb qilishning bozordagi assimetrik axborotlarni kamaytirish hamda transaksiya xarajatlarini qisqartirishda xalqaro Sorsing kompaniyalari xizmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 07-iyundagi PQ-286-son “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorining 1-ilovasi, 7-8 bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va

savdo vazirligining 2024-yil 26-sentyabrdagi 03-21-1-9024-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotda qo'llanishi natijasida mahsulotlarni faqat o'zimizdan chiqib ketgunicha emas, balki ularni tashqi bozorlarda brend sifatida tanitish uchun mashhur brendlar buyurtmalarini joylashtiruvchi 30 ta "sorsing" kompaniyasi bilan kelishuvga erishilgan;

O'zbekistonda franchayzing asosida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning marketing tadqiqotlariga ustuvorlik berish asosida 2025-2028-yillar davomida yalpi ichki mahsulotga qo'shadigan summasining prognoz parametrlari trend tenglamasi yordamida ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 26-sentyabrdagi 03-21-1-9024-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida Franchayzing asosida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning 2024-yildan 2028-yilgacha YAIMga qo'shadigan summaning 39,7 mlrd. so'mdan 150,9 mlrd. so'mgacha, ya'ni 26 foiz o'sishiga imkon beradi;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy g'oya va xulosalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 5 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya asosiy matnining hajmi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining «**Franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanishning nazariy - uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida xalqaro jozibador franshizlarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanishning zarurligi va funksional elementlarining nazariy asoslari, franshizlar rivojlanish bosqichlari, mohiyati va uning asosiy turlari hamda franchayzing munosabatlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari kabi masalalar tadqiq etilgan. Mazkur bob bo'yicha tegishli xulosalar ham keltirilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: "Qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha amalga oshirgan islohotlarimiz natijasida so'nggi 5 yilda iqtisodiyotimizga kirib kelgan xorijiy investitsiyalar hajmi 10 baravar oshib, qariyb 40 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Biz 10 yil ichida yalpi ichki mahsulot hajmini hozirgidan ikki barobarga oshirishni maqsad qilganmiz. Bunga erishish uchun bizda xohish-iroda ham, imkoniyat ham yetarli. O'z oldimizga qo'ygan bunday yuksak marralar uchun sarmoyalar hajmini kelgusi 5 yilda 120 milliard dollarga yetkazish, jumladan, kamida 70 milliard AQSh dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilishni hisob-kitob qilganmiz. Ushbu investitsiyalarni, eng avvalo, sanoat sohalari modernizatsiya va transformatsiya qilish, ishlab chiqarish, kommunal va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirishga yo'naltirish uchun aniq loyihalar va dasturlarimiz bor. Shuningdek, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi davlat qaramog'idagi an'anaviy sohalarga ham xususiy investitsiyalar jalb qilish kun tartibimizda turadi"⁶.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda xalqaro investitsiyalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlari juda zarur bo'lib, O'zbekiston bozorining konyunkturasi, o'sish tendensiyalari, mijozlar tomonidan talab qilinadigan xizmatlar va mahsulotlar, milliy bozorga xos xususiyatlar va qo'shimcha ma'lumotlar to'plamini tashkil etadi. Bu tahlillar, franshiza kompaniyasiga O'zbekistondagi bozor potensialini o'rganishda yordam beradi.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, mualliflar tomonidan franchayzing tushunchasiga batafsil ta'rif berilgan bo'lib, unda franchayzing faoliyatini samarali foydalanishga e'tibor qaratilgan, biroq marketing tadqiqotlari orqali jozibador franshizalarni jalb qilishdagi jihatlari e'tibor qaratilmagan. Chunki, marketing tadqiqotlari, yangi tadbirkorlarni jalb qilish va ularga o'zlarini o'zlashtirish yo'nalishlarini aniqlashda yordam beradi. Bu, tadbirkorlarni qanday topish, ularga qanday o'zlashtirish va qo'llab-quvvatlashning natijaviy imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

Xususan, "franchayzing", "marketing tadqiqotlari" singari iqtisodiy terminlar turlicha talqinda tadqiq etilganligini ko'rish mumkin. Jumladan xorijlik iqtisodchi olim Michael Seid va Dave Thomaslarning fikricha "agar siz o'z biznesingizga ega bo'lishni xohlab, lekin noldan boshlashni istamasangiz, ehtimol franchayzingni sotib olish siz uchun to'g'ri tanlovdur. Franchayzing, tashkil etish va katta tavakkal qilmasdan, kichik biznesni boshlashning qulay usuli bo'lishi mumkin"⁷.

Mazkur bobda xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiq etilib, ularga nisbatan mualliflik yondashuvlari asosida mualliflik ta'rifi shakllantirildi (1-jadval).

⁶ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining birinchi yalpi majlisidagi nutqi <https://president.uz/oz/lists/view/5702>

⁷ Michael Seid and Dave Thomas, "Franchising for Dummies". Wiley Pub. Inc., Indianapolis, IN, 2006

**Iqtisodchi olimlar tomonidan franchayzing faoliyati tushunchasiga
berilgan ta'riflar⁸**

Mualliflar	Franchayzing tushunchasiga berilgan ta'riflar
Richard L. Lynch	Franchayzingni “sotish uchun brendning olinishi” sifatida ta'riflaydi. U o'zingizni bir franshiza tadbirkorining brendiga bog'lab qo'yish va uning mahsulotlarini yoki xizmatlarini sotishning rivojlanib borishi, mamlakatning yangi tadbirkorlariga imkon berishini ko'rsatadi.
Don Boroian	Franshizani “bir brendning boshqa brendlar va tadbirkorlar bilan bo'lishi” sifatida ta'riflaydi. Bu izohda, franshiza beruvchi korxonaga o'zining mahsulotlarini yoki xizmatlarini boshqa tadbirkorlik subyektlariga taqdim etadi, ular esa o'z navbatida ushbu brendning obro'sini va ishlab chiqarish hamda boshqarishdagi tajribani qabul qilib, kengaytiradi.
Michael Martyn	Franshizani “bir shirkatning boshqarish va marketing modellini boshqarish” sifatida ta'riflaydi. Bu ta'rifda, bir franshiza tadbirkori asosiy kompaniyani o'z tadbirkorlik va marketing faoliyati bilan boshqaradi, ammo asosiy kompaniya boshqarish va brendni saqlaydi.
Scott A. Shane	Franshizani “boshqa tadbirkorlar bilan brend olish” sifatida ta'riflaydi. Bu ta'rifda, franshiza tadbirkori asosiy brendni qo'llab-quvvatlash uchun boshqa tadbirkorlar bilan hamkorlik qiladi.
Nick Neonakis	Franshiza “tadbirkorlarga bir mahsulotni yoki xizmatni sotish uchun ruxsat bermoq” sifatida ta'riflaydilar. Bu ta'rifda, franshiza tadbirkori o'zini tark etgan brendni sotish uchun boshqa tadbirkorlarga litsenziya beradi.
Muallif ta'rifi	Franchayzing faoliyati – bu brend yoki korxonaning boshqa tadbirkorlarga o'zining mahsulotlarini, xizmatlarini va brend nomini foydalanish huquqini berish jarayonidir.

Ta'kidlash joizki, franchayzing tushunchasiga Nick Neonakis xalqaro franshizalarni jalb qilishda qanday marketing tadqiqotlaridan foydalanishning muhimligini takidlab o'tib, mahalliy bozor tahlilini qilmasdan turib ma'lum bir franshizani investitsiya qilib kiritish mumkinmasligini keltirib o'tgan⁹.

Yana bir iqtisodchi olim S.V.Ramazanov marketing tadqiqotlarini amalga oshirishga quydagicha ta'rif bergan: “talab tarkibi va hajmining o'zgarishi, raqobatning paydo bo'lishi sharoitida marketingdan foydalanishning past darajasi marketingning nazariy va uslubiy muammolarini o'rganish zarurligini obyektiv ravishda belgilaydi”¹⁰.

Bizning fikrimizcha, mamlakatning investitsion salohiyatini rivojlantirish va franshizalarni jalb qilish uchun Grinfield usuli orqali yangi loyihalar va intellektual mulk obyektlarini baholashda aniq va ishonchli natijalar beradi. Bu usul, xarajat va daromadlarni kompleks tahlil qilish, risklarni hisobga olish va innovatsion yondashuvlar orqali yangi investitsiyalar va loyihalar uchun zarur bo'lgan ishonchli baholash natijalarini taqdim etadi. Bu investorlar va tadbirkorlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, yangi loyihalarga to'g'ri baho berish imkonini yaratadi. Bu borada franchayzing shartnomalarining samaradorligini baholash uslubiyoti nomoddiy aktivlar va intellektual mulk obyektlari qiymatini “Grinfield uslubi”ga

⁸ Sohaga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzildi.

⁹ Nick Neonakis, The Franchise MBA: Mastering the 4 Essential Steps to Owning a Franchise". 2013.

¹⁰ Рамазанов Сергей Викторович, Маркетинговые исследования на мебельных предприятиях; Москва-1999

ustuvorlik berish asosida takomillashtirish lozim deb hisoblaymiz. Tatqiqot natijasida Grinfild usulining boshqa baholash usullaridan farqi jihatlar bilan ajralib turi ma'lum bo'ldi.

Birinchidan, Grinfild usuli yangi loyiha yoki korxonani yaratishda foydalaniladigan xarajatlar va kutiladigan daromadlarni hisoblashga asoslanadi. Bu usul mavjud aktiv yoki korxonaning hozirgi holatini baholashdan ko'ra, yangi yaratiladigan aktiv yoki loyiha qiymatini aniqlashga yo'naltirilgan. Boshqa usullar, masalan, bozorda o'xshash aktivlarni taqqoslash yoki hozirgi foyda darajasi va kelajakdagi pul oqimlarini hisoblash bilan cheklanadi.

Ikkinchidan, Grinfild usuli xarajatlar va daromadlarni kompleks ravishda baholaydi, bu esa yangi intellektual mulk obyektlari yoki nomoddiy aktivlarni yaratish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni va ulardan kutiladigan daromadlarni aniq hisoblashga imkon beradi.

Uchinchidan, Grinfild usuli risklarni hisoblash va ularni qiymatga qo'shish orqali yakuniy baholash natijasini aniqlaydi. Bu usulda risklar alohida omil sifatida hisobga olinadi. Boshqa usullar, masalan, sof daromad usuli (Income Approach), risklarni asosan diskont stavkasi orqali hisoblaydi, bu esa risklarni aniqlashda aniqroq natijalar bermasligi mumkin.

To'rtinchidan, Grinfild usuli innovatsion loyihalar va yangi texnologiyalarni baholashda keng qo'llaniladi, chunki bu usul yangi mahsulot va xizmatlar bozoriga chiqishda kutiladigan foyda va xarajatlarni hisoblashga yordam beradi. Boshqa usullar, masalan, xarajatlar usuli (Cost Approach), mavjud aktivlarning yaratilish xarajatlariga asoslangan holda baholashni amalga oshiradi va innovatsion loyihalar uchun to'liq mos kelmasligi mumkin.



1-rasm. Franchayzingda foydali almashuv natijalari¹¹

Sohaning muvaffaqiyatli faoliyati olib borishi uchun franchayzer franchayzini turli ko'maklashish shakllari bilan ta'minlaydi va bozorda obro'sini saqlab qolish maqsadida franchayzi faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish huquqidan, uning huquqiy va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlagan holda foydalanadi. Bu yerda so'z,

¹¹ Muallif ishlanmasi
14

birinchi navbatda, franchayzer tomonidan ishonib topshirilgan texnologiyalar, tovar va xizmatlar sifati ustidan nazorat haqida ketmoqda. Franchayzing tadbirkorlikda tuziladigan boshqa kelishuvlarga, shu jumladan, agentlik, distribyutorlik, litsenziyaga va nou-xauga oid boshqa kelishuvlarga yaqin. Ushbu kelishuvlarni boshqa shakllar bilan qiyoslash 1-rasmda keltirilgan.

Hozirgi kunda franchayzing butun dunyoda ma'lum va keng tarqalgan Franchayzerlar va shu bilan birga, franchayzing tarmoqlari soni tez sur'atda o'sib bormoqda. Xalqaro franchayzing uyushmasi ma'lumotiga ko'ra, ushbu asrning boshida dunyo buyicha 16,5 ming franchayzer va 1,2 mln. franchayzi mavjud bo'lgan. Bugungi kunda, O'zbekiston franchayzing assotsiatsiyalari ma'lumotlariga ko'ra, franchayzing O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 0,3 foizini tashkil qilib, O'zbekistonda 340 franchayzing brendi 15 mingdan ortiq kishini ish bilan ta'minlamoqda¹².

Xususan, 2023-yilda franchayzing birliklari soni bo'yicha dunyoda 805,000 taga yetgan. Bandlik sohasida esa 8,7 million kishi franchayzingda ish bilan ta'minlanadi deb hisoblanmoqda. Sohaning iqtisodiy natijasi \$860,1 milliard AQSh dollariga yetishgan, bu esa 2022-yilga nisbatan deyarli 30%ga oshganligidan dalolat beradi. 2023-yilning eng yirik sektori esa xizmat ko'rsatish sohalari va tez xizmat ko'rsatadigan restoranlarga o'tadi, bu esa soha tarkibida o'zgarishlarning yuz berayotganini ko'rsatadi. Ish o'rinlarining o'sishi 254 ming yangi ish o'rnini tashkil etib, iqtisodiy mahsulotning umumiy o'sishi 4,2% ga yetadi, bu avvalgi yillarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich hisoblanib, tegishli ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Dunyo bo'yicha franchayzing korxonalarining 2021-2023-yillar asosiy ko'rsatkichlari¹³

Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Franchayzinglar soni (birlikda)	750 000	783 000	805 000
Franchayzingda band bo'lganlar soni (birlikda)	7 490 000	8 100 000	8 700 000
Franchayzingning iqtisodiy natijasi (milliard AQSH dollarida)	670,1	825,4	860,1
Iqtisodiy natijalarning umumiy o'sishi (foizda)	3,5	3,8	4,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, franchayzing sohasi orqali yillar davomida izchil rivojlangan va turli sohalarda, ayniqsa xizmat ko'rsatish va fast-fud sektorlarida o'sganligini ko'rish mumkin. Bu esa ushbu sohani iqtisodiyotdagi muhim omil sifatida ko'rsatib, kelajakda ham franchayzingning o'sish istiqbollarini ijobiy baholash imkonini beradi.

¹² Milliy franchayzing assotsiatsiyalari assotsiatsiyasi.-<https://worldfranchisecouncil.net/>

¹³ 2023 Franchising Economic Outlook Study Says the Industry Will Continue to Grow; https://www.franchising.com/articles/2023_franchising_economic_outlook_study_says_the_industry

O‘zbekistonda mahsulotlarni xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli sotish va mamlakatga global brendlarni jalb qilish jarayonida brendga aylanish muhim rol o‘ynaydi. Mahsulotlarning yuqori sifat va innovatsiyaga ega bo‘lishi, samarali marketing kampaniyalari, jozibador ko‘rinish va dizayn, xalqaro sertifikatlar va standartlar, mahsulot differentsiatsiyasi, raqamli market, xalqaro ko‘rgazmalar va tadbirlarda ishtirok etish, va mijozlarga xizmat ko‘rsatish kabi jihatlar brendni mustahkamlashning muhim omillaridandir. Xalqaro sorsing¹⁴ kompaniyalari xizmatlaridan foydalanish esa bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Ular global brendlarni O‘zbekiston bozoriga jalb qilishda o‘zlarining xalqaro tajribasini va maqsadli marketing strategiyalarini qo‘llash orqali milliy brend jozibadorligini oshirishga erishadilar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi, **“Xalqaro jozibador franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini baholash”** deb nomlanib, ushbu bobda O‘zbekistonda xalqaro franshizlarni bugungi kundagi holati hamda samarali franshizalar tarmog‘ini yaratish bosqichlari va raqamli marketingning integratsiyasi mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va xalqaro biznes hamkorliklarini kengaytirishda muhim o‘rin tutishi mumkinligini tadqiq etish asoslari yoritilgan.

Mamlakatimizda franchayzingning sohaviy yo‘nalishi deyarli cheksiz. Biznesni tashkil etishning ushbu modeli savdo belgisi mavjud tovarlarni sotishda ham, aholi va biznes uchun xizmat taqdim etish sohasida, shuningdek original texnologiyalar asosida mahsulotlar ishlab chiqish sohasida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158 sonli «O‘zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmonida “Mamlakatimizda 250 milliard AQSh dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish”¹⁵ ko‘zda tutilgan bo‘lib mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirishda marketing tadqiqotlari, qo‘shimcha bilim va mahoratni o‘rgatishda katta rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqotlar mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini chuqurroq tushunish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda yordam beradi. Marketing tadqiqotlari orqali, biz mamlakatimizning xalqaro investitsion maydondagi o‘rni va jozibadorligini aniqlash, shuningdek, eng samarali taqdimot va strategiyalarini ishlab chiqishda muhim tushunchalarga ega bo‘lamiz. Bu bilim va tushunchalar bizneslar va investorlar bilan samarali hamkorlik qilish va yangi, yuqori daromadli iqtisodiy munosabatlarni qurish imkoniyatini yaratadi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, investitsiyaviy faoliyat samaradorligi va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish imkoniyatini yaratishda raqamli marketing hamda islohotlarga asoslangan yondashuvlarni keltirish mumkin.


¹⁴ Sorsing korxonalari, asosan, korxonalar uchun zarur bo‘lgan mahsulot va xizmatlarni topish, baholash va yetkazib berish jarayonlarini boshqaradigan kompaniyalardir.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 11.09.2023 sanadagi PF-158 sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.

Birinchidan, investitsiyaviy faoliyatni axborot-tahliliy qo‘llab-quvvatlash investitsiya bozori, potensial imkoniyatlar va risklar haqida doimiy ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va taqdim etishni imkonini beradi.

Ikkinchidan, investitsiya loyihalarini va islohotlarni ilgari surish investorlar bilan muzokaralar olib borish, investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish, joylashuv imkoniyatlarini tahlil qilish va tegishli loyihalarni aniqlash kabi tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq.

Uchinchidan, investitsiya imidjini oshirishda mamlakat yoki mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini shakllantirish jarayonida jamoatchilik bilan aloqalarni o‘rnatish “public relations (PR)” kampaniyalari, hududiy marketing strategiyalari va boshqa imidjni yaxshilash choralari ishlab chiqiladi. Bu, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini xalqaro maydonda targ‘ib qilish hamda potensial investorlar orasida ijobiy qarashlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.



3-rasm. O‘zbekistonda samarali franshizalar tarmog‘ini yaratish bosqichlari¹⁶

¹⁶ Muallif ishlanmasi

Mazkur tafsiya etilgan tashkiliy tadbirning yana bir jihati shundaki, mamlakatimizda samarali franshizalar tarmog'ini yaratish bir qancha bosqichlarda amalga oshirilishi bilan dolzarb ahamiyatga ega (3-rasm).

Dunyo bo'ylab internet foydalanuvchilari soni doimiy ravishda o'sib bormoqda, 2022-yilda 4,9 milliard kishi internetdan foydalangan. Bu sizning maqsadli auditoriyangiz onlayn bo'lishi mumkinligini anglatadi va siz ularga raqamli marketing kanallari orqali murojaat qilishingiz mumkin. Raqamli marketing strategiyasiga sarmoya kiritib, siz o'z auditoriyangiz bilan ular eng ko'p vaqt sarflaydigan joyda - ijtimoiy tarmoqlarda, qidiruv tizimlarida yoki boshqa onlayn platformalarda bog'lanish mumkin.

Shuningdek, raqamli marketing kompaniyalarga xalqaro bozorda reklama tushunchasini oshirish va o'zlarining brendini dunyoning har qanday nuqtasida ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bu, boshqaruv, o'zlashtirish va marketing strategiyalarini yanada samarali qilishga olib keladi.

2024-yilda raqamli marketing harakatlarning optimallashtirish uchun to'g'ri ijtimoiy media kanallaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Har bir platforma marketing maqsadlarni maqsadli auditoriyaga va ko'rishni rejalashtirgan kontent turiga qarab noyob afzalliklarni taqdim etadi. Turli manbalardan olingan ma'lumotlar asosida raqamli marketingning turli jihatlari uchun eng samarali ijtimoiy media kanallari foydalanib kelinmoqda.

3-jadval

Global raqamli reklama xarajatlarining asosiy ko'rsatkichlari va prognozi¹⁷

Yillar	Raqamli reklama xarajatlari (mln.dollarda)	Yillik o'sish (foizda)	Ommaviy axborot vositalarida reklama xarajatlarining umumiy ulushi (foizda)
2022	549,5	9,71	52,1
2023	601,8	9,52	67,1
2024	667,6	10,93	68,2
2025	730,0	9,35	69,3
2026	800,0	9,59	71,2
2027	870,9	8,86	73,8

Yuqoridagi jadval (3-jadval) ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda global raqamli reklama xarajatlari rekord darajaga yetishi kutilmoqda, prognozlar bo'yicha bu ko'rsatkich 667,6 million dollarga yetadi va yillik o'sish sur'ati 10,93% ni tashkil etadi. Ushbu o'sish dinamikasi raqamli marketingning biznes strategiyalaridagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, franshiza egalariga raqamli reklama vositalaridan samarali foydalanish orqali o'z brendlarini xalqaro miqyosda kengaytirish uchun katta imkoniyat yaratmoqda.

Franshizalar uchun raqamli marketingning o'sishi va rivojlanishi katta ustunlikka aylanadi, chunki ular turli mintaqalardagi auditoriyalarga raqamli kanallar orqali osongina yetib borishlari mumkin. Jadvalga ko'ra, 2024-yilda umumiy reklama xarajatlarining 68,2% qismi raqamli platformalar ulushiga to'g'ri keladi. Bu esa

¹⁷ Muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.

franshizalar uchun an'anaviy reklama usullaridan farqli ravishda raqamli platformalarda ko'proq ko'rinish olish imkonini beradi. Raqamli kanallarning kengayishi va samaradorligi tufayli franshizalar aniq auditoriyaga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi va o'z mahsulot yoki xizmatlarining taniluvchanligini oshirishi mumkin.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, mamlakatning investitsiya faoliyatini boshqarishda marketing yondashuvi vositasi sifatida raqamli marketingdan foydalanish internetga kirishning nisbatan arzonligi, internetdan foydalanuvchilar sonining doimiy o'sib borishi, global telekommunikatsiya tarmog'ining rivojlanishi, maqsadli guruh vakillari (potensial investorlar) tomonidan internetdan foydalanishning yuqori chastotasi, internetda faoliyatni maqsadli targetlash imkoniyati, teskari aloqa samaradorligi, internet tarmog'ida axborotni olish va yangilash samaradorligi, axborotning shaffofligi va foydalanish imkoniyati, investitsiyalar samaradorligini baholash qulayligi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot bilan ta'minlash uchun vaqt va moddiy resurslarni minimallashtirish imkoniyatini yaratishi, saytdagi reklama maydonini sotish orqali qo'shimcha moddiy resurslarga ega bo'lishi muttasil oshib boradi.

